

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlarining
14.11.2024 yildagi 26-sonli yig‘ilish
qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY
FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI NIZOMI**

Toshkent-2024

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari, va “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Ushbu Nizom Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishining maqomini, faoliyatini, uni o‘tkazish va qaror qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar qonunchilik, bank Ustavi va mazkur nizom bilan tartibga solinadi.

1.4. Bank aksiyadorlarining Yillik umumiy yig‘ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Bank aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi shaxsan qatnashish shaklida o‘tkaziladi.

1.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Bank Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash to‘g‘risidagi, Bank Boshqaruv Raisi va uning o‘rnbosarlari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Bankning yillik hisoboti va “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalar ko‘rib chiqiladi.

1.6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan boshqa o‘tkaziladigan yig‘ilishlar navbatdan tashqari yig‘ilishlar hisoblanadi.

1.7. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Bank kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

1.8. Aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi va navbatdan tashqari yig‘ilishlarining xarajatlari Bank mablag‘i hisobidan qoplanadi.

II. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatlari

2.1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

2.1.1. Bank ustaviga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish yoki ustavni yangi tahririni tasdiqlash (bank ustav kapitalini ko‘paytirish bilan bog‘liq ustavga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar bundan mustasno);

2.1.2. Bankni qayta tashkil etish;

2.1.3. Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatuv komissiyasining) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- 2.1.4. Bank Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiyalar to'lash;
- 2.1.5. E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- 2.1.6. Bankning ustav kapitalini kamaytirish;
- 2.1.7. Bank tomonidan o'z aksiyalarini sotib olish;
- 2.1.8. Bankning tashkiliy tuzilmasini shuningdek unga o'zgartirishlarni kuzatuv kengashidan ma'qullangandan so'ng tasdiqlash (bank tashkiliy tuzilmalariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar bundan mustasno);
- 2.1.9. Bankning o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- 2.1.10. Bankning soyda va zararlarini taqsimlash;
- 2.1.11. Bank Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;
- 2.1.12. Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida ("Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan) qarorni qabul qilish;
- 2.1.13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- 2.1.14. Bank aksiyalarini maydalash va yiriklashtirish;
- 2.1.15. Qonunchilikda nazarda tutilgan xollarda yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 2.1.16. Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, ularning miqdori, tartibi va to'lov shaklini belgilash;
- 2.1.17. Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- 2.1.18. Qonunchilikda, mazkur nizomda va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.
- 2.1.19. Bankning Boshqaruviga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risidagi tartibini Kuzatuv kengashi tomonidan maqullangandan so'ng tasdiqlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari bilan bank boshqaruvi raisi va rais o'rinnbosarlariga to'lanadigan oylik ish haqiga alohida mukofotlar belgilash mumkin.
- 2.1.20. Kuzatuv kengashi a'zolariga Bank faoliyatidagi ishtiroklari uchun haq to'lanmaydi (kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bundan mustasno). Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq to'lash "Kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash tartibi" togrisidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga asosan Kuzatuv kengashi a'zolariga Bank faoliyatidagi ishtiroklari uchun haq to'lanishi mumkin.
- Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan davlat xizmatchisi, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari vakillari xisoblanmagan hamda kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha tayinlangan va mustaqil bo'limgan a'zolari uchun, mustaqil a'zolarga belgilangan miqdor doirasida mukofot tayinlanishi mumkin.

2.1.21. Bankning Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qarirlarni qabul qilish.

2.1.22. Aktsiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning boshqa boshqaruvi organiga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno

III. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqi.

Aksiyadorlar va ularning vakolatli vakillarini ro‘yxatdan o‘tkazish

3.1. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo‘ladi.

3.1.2. Bank aksiyadorning talabiga ko‘ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to‘g‘risida axborot taqdim etishi shart.

3.1.3. Bank aksiyadorlarining reyestriga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, mazkur reyestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reyestrni shakllantirishda yo‘l qo‘yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.

3.2. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishda qatnashuvchi aksiyadorlarning ro‘yxati Sanoq komissiyasi tomonidan tuziladi va imzolanadi. Aksiyadorlar ro‘yxatida har bir aksiyador va unga tegishli aksiyalarning soni va turi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig‘ilish to‘g‘risidagi bildirishnomada ko‘rsatilgan joy va yig‘ilish boshlanguncha ro‘yxatdan o‘tishlari kerak.

3.3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog‘i bilan o‘ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

3.4. Umumiy yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga o‘zgartirishlar ro‘yxatni tuzish sanasida ko‘rsatib o‘tilgan ro‘yxatga kiritilmagan shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash yoki uni tuzishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish hollaridagina qonun hujjalarda belgilangan tartibda kiritilishi mumkin.

3.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida aksiyadorlar ro‘yxatiga kiritilgan, Umumiy yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar, ularning vakolatli vakillari, Bank auditori, Bank Kuzatuv Kengashi va Bank Boshqaruvi a’zolari hozir bo‘lish huquqiga egadirlar. Shuningdek, yig‘ilishga Kuzatuv Kengash, Boshqaruvi tarkibiga saylash uchun ovoz berish byulleteniga kiritilgan shaxslar taklif etiladilar.

3.6. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma’lumotlar) bo‘lishi lozim.

3.7. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishidagi o‘z vakilini istalgan vaqtida almashtirishga yoki yig‘ilishda shaxsan o‘zi ishtirok etishga haqlidir.

3.8. Umumi yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig‘ilish to‘g‘risidagi bildirishnomada (xatda) ko‘rsatilgan joy va vaqt bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishlari kerak.

3.9. Umumi yig‘ilishda qatnashish uchun kelgan jismoniy shaxslar bo‘lgan aksiyadolarni ro‘yxatdan o‘tkazish pasport yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ko‘rsatilgach, vakilga nisbatan esa - notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma ko‘rsatilgach amalga oshiriladi.

3.10. Bank aksiyadori bo‘lgan yuridik shaxs rahbari Umumi yig‘ilishdagi o‘z vakolatlarini lavozimga tayinlash to‘g‘risidagi huquqiy hujjat hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.

3.11. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, pasportiga oid ma’lumotlar) bo‘lishi lozim. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsnинг muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

3.12. Umumi yig‘ilishga kelgan aksiyadolarni ro‘yxatdan o‘tkazish Umumi yig‘ilishda qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga muvofiq yuritiladi. Ushbu ro‘yxat Bank aksiyadorlar reestri bo‘yicha Bank Kuzatuv Kengashi qarori bilan belgilangan sanadagi ma’lumotlar asosida tuziladi.

3.13. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlar vakillarini saylash tartibi va vakolat me’yori Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan belgilanadi.

3.14. Bunda Bank Kuzatuv Kengashi va aksiyadorlar quyidagilarga amal qiladilar:

3.14.1. har bir aksiyador yig‘ilishda shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etish masalasini mustaqil hal etadi. Vakolat me’yorlarining eng kam chegarasi belgilanmagan;

3.14.2. vakolat me’yorlarini belgilash ovoz beruvchi aksiyalarni aksiyadorlar vakillari o‘rtasida teng ravishda taqsimlanishini nazarda tutmaydi.

3.15. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida Bank Kuzatuv Kengashi qaror qabul qilgunga qadar aksiyador (aksiyadorlar) umumi yig‘ilishning kun tartibini tuzish jarayonida, Bank Kuzatuv Kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida o‘z manfaatlarini ifodalash uchun ishonchli vakilni tanlash huquqiga ega. Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi bu masalada aksiyadorlarga kerakli yordam ko‘rsatishlari kerak.

3.16. Aksiyadorlarning Umumi yig‘ilishi ishtirokchilari va ularning vakillarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Bankda aksiyadorlar vakillarini qayd etish ro‘yxati tuziladi.

3.17. Umumi yig‘ilishda qatnashuvchi aksiyadorlar va ularning vakillari ovoz berish byulletenlarini olganliklari to‘g‘risida qayd etish ro‘yxatiga imzo chekadilar. Bu byulletenda ishonchnoma bergenlarning taqdim etilgan ovoz beruvchi aksiyalarning soni, aksiyadorlar vakilining qayd etish kartochkasi raqami ko‘rsatiladi.

3.18. Aksiyadorlar umumi yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ro‘yxati tuzilgan sanadan so‘ng va Umumi yig‘ilish o‘tkaziladigan sanagacha aksiyalar boshqa shaxsga belgilangan tartibda berilgan taqdirda, Bank hujjatlarni

yangi aksiyador bo'yicha shakillantirishi va uning ovoz berish huquqini tasdiqlovchi hujjatni olishi lozim.

3.19. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, u holda unga u ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa u ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga _____ ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha _____ da berilgan _____ -son ishonchnoma bo'yicha» degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

IV. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

4.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda Bank Kuzatuv Kengashi quyidagilarni belgilaydi:

4.1.1. umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

4.1.2. umumiy yig'ilishning kun tartibi;

4.1.3. umumiy yig'ilish o'tkazish uchun bank aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;

4.1.4. umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga va davlat vakiliga xabar qilish tartibi;

4.1.5. umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxati;

4.1.6. ovoz berish byulletenining shakli va matni.

4.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar mazkur Nizomning 3.3. bandida keltirilgan tartibda yuboriladi.

4.3. Bank aksiyadorning talabiga ko'ra unga uni Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish huquqini beruvchi aksiyadorlar ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi axborotni (tekin) berishga majburdir.

4.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

4.4.1. bankning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

4.4.2. umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

4.4.3. jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;

4.4.4. umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etilishi lozim bo'lган axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni va davlat vakilini tanishtirish tartibi.

4.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rileyotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lган materialarga bankning yillik hisoboti, bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan bank auditorlik tashkilotining xulosasi, Bank Boshqaruv Raisi va uning o'rinnbosarlari bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi

to‘g‘risidagi xulosasi, shuningdek Bank Kuzatuv Kengashi a’zoligiga nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, Bankning ustaviga, Bankning boshqaruv organlari to‘g‘risidagi nizomlarga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘srimchalar loyihasi yoki bankning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi kiradi.

4.6. Bank Aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi kun tartibiga doir takliflar Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili tugaganidan keyin 5 martdan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig‘ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda bank Kuzatuv Kengashi bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli. Nomzodlar soni ushbu organlar son tarkibidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

4.7. Aksiyadorlar (aksiyador) Bank Kuzatuv Kengashiga o‘zlari ko‘rsatgan nomzodlar ro‘yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabar e’lon qilingan sanadan e’tiboran uch ish kundan kechiktirmay o‘zgartishlar kiritishga haqli.

4.8. Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining kun tartibiga masala uni qo‘yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko‘rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

4.9. Bank Kuzatuv Kengashiga nomzodlar ko‘rsatish to‘g‘risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o‘zini o‘zi nomzod qilib ko‘rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod bank aksiyadori bo‘lsa), shuningdek nomzodni ko‘rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko‘rsatiladi.

4.10. Bank Kuzatuv Kengashi tushgan takliflarni ko‘rib chiqishi hamda ularni aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi kun tartibiga kiritish to‘g‘risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

4.11. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko‘rsatilgan nomzodlar Bank Kuzatuv Kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

4.11.1. ushbu nizomning 4.7. bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo‘lsa;

4.11.2. aksiyadorlar (aksiyador) bankning ushbu nizomning 4.8. bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo‘lmasa;

4.11.3. ushbu nizomning 4.9. bandida nazarda tutilgan ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa;

4.11.4. takliflar qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmasa.

4.12. Bank Kuzatuv Kengashining masalani aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv Kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

4.13. Bank Kuzatuv Kengashining masalani aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv Kengashiga saylov bo‘yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

V. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish

5.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Bank Kuzatuv Kengashining qaroriga ko‘ra uning o‘z tashhabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o‘tkaziladi.

5.2. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko‘ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay Bank Kuzatuv Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

5.3. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi talabda yig‘ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo‘lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko‘rsatilgan holda ta’riflangan bo‘lishi kerak.

5.4. Bank Kuzatuv Kengashi bank yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi masalalarning ta’rifiga o‘zgartishlar kiritishga haqlı emas.

5.5. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig‘ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

5.6. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

5.7. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida talab taqdim etgan sanadan e’tiboran o‘n kun ichida Bank Kuzatuv Kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida yoki yig‘ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

5.8. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

5.8.1. aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ushbu nizomning 5.3. bandida nazarda tutilgan miqdordagi bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo‘lmasa;

5.8.2. kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

5.8.3. kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala ushbu qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmasa.

5.9. Bank Kuzatuv Kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risidagi qarori yoki bunday yig‘ilishni chaqirishni rad etish haqidagi

asoslantirilgan qarori yig‘ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

5.10. Bank Kuzatuv Kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqirishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

5.11. Bank Kuzatuv Kengashi ushbu Nizomda belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining qaroriga ko‘ra bankning mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.

5.12. Bank tomonidan Bank Kuzatuv Kengashining vakolatlarini muddatidan oldin to‘xtatish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqish qonunchilikka asosan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiyligi yig‘ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

VI. Aksiyadorlar Umumiyligi yig‘ilishining kvorum

6.1. Agar aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi.

6.2. Agar yig‘ilish boshlanishi uchun belgilangan vaqtidan so‘ng 60 minutdan ortiq vaqt davomida kvorum bo‘lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazish sanasi e’lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazishda kun tartibini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.3. Agar aksiyadorlarning o‘tkazilmay qolgan yig‘ilishi o‘rniga chaqirilgan takroriy umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig‘ilishi vakolatli bo‘ladi.

6.4. aksiyadorlarning takroriy umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida xabar qilish ushbu nizomda nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

6.5. Agar takroriy yig‘ilishda kvorum to‘planmasa, u holda aksiyadorlar tashabbusi bilan chaqirilayotgan yig‘ilish bo‘lib o‘tmagan deb hisoblanadi va bundan keyin chaqirilmaydi: Bank Kuzatuv Kengashi yoki Bank auditorining tashabbusi bilan Bankning tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami bo‘lib kamida 50 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (ularning vakillari) hozir bo‘lishi ta’milnangancha qaytadan chaqirilaveradi.

6.6. Kvorum bo‘limganligi sababli aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishini o‘tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko‘chirilgan taqdirda, umumiyligi yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar o‘tkazilmay qolgan umumiyligi yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

VII. Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining ishchi organlari

7.1. Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilish ishchi organlari bo‘lib Rayosat, Sanoq komissiyasi va Kotibiyat hisoblanadi.

7.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi Rayosati va raisi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida saylanadi. Bunda Aksiyadorlar umumiy yig‘ilish Rayosat tarkibiga lavozimiga ko‘ra Bank Kuzatuv Kengashi raisi kiradi.

7.3. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi Raisi yig‘ilish rayosatiga boshchilik qiladi, yig‘ilish olib borilishini ta‘minlaydi va buning uchun u o‘z vazifalarini zarur tartibda bajarilishi uchun zarur bo‘lgan barcha vakolatlarga ega bo‘ladi.

7.4. Umumiy yig‘ilish Raisi yig‘ilishning borishiga rahbarlik qiladi, Umumiy yig‘ilish ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma’ruzachilarning nutq so‘zlashlari vaqtini chegaralaydi, yig‘ilishni olib borish va ovoz berish davomida tushuntirishlar beradi, zalda tartib o‘rnatalishini nazorat qiladi.

7.5. Umumiy yig‘ilish Raisi Umumiy yig‘ilish bayoni va qarorini imzolaydi.

7.6. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi Bank Kuzatuv Kengashi taklifiga ko‘ra, 3 (uch) kishidan kam bo‘lmagan tarkibda kelgusi umumiy yig‘ilishgacha bo‘lgan muddatga Umumiy yig‘ilishning mustaqil organi bo‘lmish Sanoq komissiyasini saylaydi. Sanoq komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibi Bank Kuzatuv Kengashining taklifiga binoan Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilish tomonidan tasdiqlanadi.

7.7. Sanoq komissiyasi vakolatlarining muddati u Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan saylangan paytdan boshlab aksiyadorlarning tegishli yig‘ilishi (yillik yoki navbatdan tashqari) tomonidan sanoq komissiyasining yakka tarkibi saylanishi (yoki qayta saylanishi) paytigacha hisoblanadi.

7.8. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish paytida Sanoq komissiyasi quyidagilarni amalga oshiradi:

7.8.1. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatini tuzadi;

7.8.2. ovoz berish byulletenlarini va Umumiy yig‘ilishning boshqa materiallarini beradi va yuboradi, berilgan (yuborilgan) byulletenlar hisobini olib boradi.

7.9. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida oldingi Umumiy yig‘ilish tomonidan saylangan sanoq komissiyasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

7.9.1. Umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro‘yxatdan o‘tkazadi;

7.9.2. ishonchnomalar va ular tomonidan berilgan huquqlar hisobini yuritadi;

7.9.3. Umumiy yig‘ilish qatnashchilariga ovoz berish byulletenlarini va Umumiy yig‘ilishning boshqa axboroti (materialari)ni taqdim etadi;

7.9.4. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kvorumi mavjudligini aniqlaydi;

7.9.5. Umumiy yig‘ilish ishchi organlarini saylashni tashkil etadi;

7.10. Bo‘lib o‘tayotgan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan saylangan sanoq komissiyasi:

7.10.1. aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan Umumiy yig‘ilishda ovoz berish huquqini amalga oshirish munosabati bilan paydo bo‘luvchi masalalarni tushuntiradi;

7.10.2 ovoz berishga qo‘yilayotgan masalalar bo‘yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi;

7.10.3. ovoz berishning belgilangan tartibini va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashishi huquqini ta'minlaydi;

7.10.4. ovozlarni sanaydi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi;

7.10.5. ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnomma tuzadi;

7.10.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hujjatlari, shu jumladan ovoz berish byulletenlari (muhrlangan holda), ishonchnomalar (nusxalari) va boshqa hujjatlarni Bank arxiviga topshiradi;

7.10.7. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarga ma'lumotnomma va ro'yxatdan ko'chirmalar beradi.

7.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ochilishidan avval Bankning sanoq komissiyasi yig'ilishga kelgan aksiyadorlar va ularning vakillarining ro'yxatdan o'tish natijalari, kvorum mavjudligi to'g'risida umumiy yig'ilishga axborot beradi. Ro'yxatga olish natijalari Bank Kuzatuv Kengashi Raisi yoki uning o'rribosarlariga topshiriladi.

7.12. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi oddiy ko'pchilik ovoz bilan yig'ilish Kotibiyatini saylaydi. Kotibiyatning miqdoriy va shaxsiy tarkibi Bank Kuzatuv Kengashi taklifiga ko'ra aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.

7.13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kotibiyati quyidagilarni amalga oshiradi:

7.13.1. umumiy yig'ilishning o'tish jarayonini yozib boradi;

7.13.2. kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtirok etish istagini bildirganlarning yozma buyurtmalarini yozib boradi va ularni Rayosatga topshiradi;

7.13.3. aksiyadorlar umumiy yig'ilishinin bayonnomasini tuzadi.

VIII. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish

8.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bankning oddiy (odatdagi) aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega.

8.2. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori yig'ilishda qatnashayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

8.3. Aksiyador bo'limgan Bank Kuzatuv Kengashi va Boshqaruvi a'zolari aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida maslahat ovozi berish huquqiga ega.

8.4. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovoz berish «bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi-bitta ovoz» qoidasiga muvofiq o'tkaziladi. Bank Kuzatuv Kengashi a'zolarini saylash jarayonida aksiyador o'ziga tegishli aksiyalar bo'yicha ovozlarni bir nomzod uchun to'liq berishga yoki ularni bir qancha nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli (kumulyativ ovoz berish). Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar Kuzatuv Kuzatuv Kengash tarkibiga saylangan hisoblanadilar.

8.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish byulletenlar yordamida amalga oshiriladi. Yig'ilishni o'tkazish tartibi, ishchi organlarni saylash oddiy qo'l ko'tarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8.6. Ovoz berishda aksiyador (uning vakili) qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Yuqorida qayd etilgan talablarga xilof tarzda to'ldirilgan ovoz berish

byulletenlari haqiqiy emas deb e'tirof etilib, ularda bu masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

8.7. Agar ovoz berish byulleteni ovozga qo'yilgan bir nechta masalani qamrab olgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masala bo'yicha yuqorida qayd etilgan talabga rioya etmaslik ovoz berish byulletenining butunlay haqiqiy emas deb e'tirof etilishiga olib kelmaydi.

8.8. Agar ovoz berish natijalariga ko'ra qaror uchun umumiyligini yig'ilishga taqdim etilgan ovoz beruvchi aksiyalarning yarmidan ko'pi ovoz bergan bo'lsa, bunday qaror qabul qilingan hisoblanadi.

8.9. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

8.10. Agar aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishiga Bankning to'langan barcha kapitali taqdim etilgan bo'lsa, yig'ilishni chaqirish vaqtini va shaklidan qat'iy nazar u qonuniy deb topiladi. Ushbu yig'ilish kun tartibiga kiritilmagan masalalarni agar bu masalalar muhokamasiga ovoz berish huquqiga ega barcha aksiyadorlar rozilik bildirsa, hal etish mumkin.

8.11. Bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruv a'zolari ularni javobgarlikka tortish yoki lavozimidan chetlashtirish yoxud ular tomonidan imzolangan hujjatlarni tasdiqlash masalalari hal etilayotgan vaqtida ovoz berish huquqiga ega emaslar.

8.12. Sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari bo'yicha bayonnomasi tuzadi va uni sanoq komissiyasining raisi va a'zolari imzolaydilar.

8.13. Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi.

IX. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishini o'tkazish tartibi

9.1. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishini o'tkazish tartibi aksiyadorlarning har bir Umumiyligini yig'ilishida ushbu Nizomga muvosiq tasdiqlanadi.

9.2. Bank Kuzatuv Kengashi Raisi yoki uning o'rinnbosari sanoq komissiyasining axborotidan so'ng kvorum mavjud bo'lsa, aksiyadorlarning umumiyligini ochadi. U Rayosat, kotibiyatni va sanoq komissiyasini saylanishni taklif etadi. Shundan so'ng Rayosat tomonidan saylangan aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishining Raisi bundan keyin yig'ilishni olib borishga kirishadi.

9.3. Umumiyligini yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lishi vaqtini, nutqlar qancha davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibi masalalarining izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

9.4. Yig'ilish davomida yuzaga keluvchi joriy masalalarni rais bosh prinsipdan: har bir qatnashching belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqidani foydalanishi mumkinligidan kelib chiqib yakkaboshchilik bilan hal qiladi.

9.5. Kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtiroy etish istagini bildirganlar Umumiyligini yig'ilish kotibiyatiga muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda buyurtmanoma beradilar.

9.6. Kun tartibidagi barcha masalalar muhokama qilingandan so'ng rais Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

X. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi

10.1. Umumiyligi yig'ilish kotibiyatining son va tarkibi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

10.2. Kotibiyat tarkibini aniqlashga nisbatan ushbu Nizomga muvofiq Sanoq komissiyasi a'zolarini tayinlashga qo'yiladigan talablarga muvofiq Sanoq komissiyasi a'zolarini tayinlashga qo'yiladigan talablarga o'xshash talablar qo'yiladi.

10.3. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusixa ham umumiyligi yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiyligi yig'ilish kotibiyati a'zolari tomonidan imzolanadi.

10.4. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasida:

10.4.1. aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

10.4.2. bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiyligi soni;

10.4.3. umumiyligi yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

10.4.4. bank Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi yoki yig'ilish ishtirokchisi bo'lgan har qanday aksiyadorning e'tirozları;

10.4.5. umumiyligi yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

10.4.6. Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

10.5. Aksiyadorlar Umumiyligi yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlar uchun ochiq hujjat hisoblanadi.

Aksiyadorlarning Umumiyligi yig'ilishi bayonnomalari aksiyadorlar Umumiyligi yig'ilishining bayonnomalari daftarida yoki electron qayd etiladi. Ushbu bayonnomalar daftarda qayd etilsa u tikiladi, raqamlanadi hamda Bankning muhri bilan tasdiqlanadi.

10.6. Sanoq komissiyasi bayonnomasi yig'ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, biroq ma'lumot uchun qabul qilinadi hamda Umumiyligi yig'ilish bayonnomasiga tikib qo'yilishi kerak.

10.7. Bayonnomma imzolangach, aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kotibiyati va Sanoq komissiyasi umumiyligi yig'ilish hujjatlarini, shu jumladan Umumiyligi yig'ilishning ro'yxatdan o'tish ro'yxatini, aksiyadorlar vakillarining ro'yxatga olish kartalarini, ishonchnomalarini, chop etilgan ovoz berish byulletenlarini, sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolangan ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnomalar va aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining bayonnomasini ham hisobga olgan holda yig'ilish hujjatlarini arxivda saqlash uchun Bank Kotibiyatiga topshiradi.

10.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari bo'yicha qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

XI. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarorlarini ijro etish

11.1. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilishni, asharti yig‘ilish qarorida o‘zgacha hol qayd etilmagan va yig‘ilish bayonnomasida aks etmagan bo‘lsa, Bank Kuzatuv Kengashi amalga oshiradi.

11.2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarorlari Umumiy yig‘ilishda hozir bo‘lgan, shuningdek hozir bo‘lmagan barcha aksiyadorlar tomonidan, ular tegishli qism bo‘yicha bajarilishi majburiydir.

XII. Yakuniy qoidalar

12.1. Mazkur Nizom Bank Kuzatuv Kengashi yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12.2. mazkur Nizomning biron-bir qoidasi o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to‘xtatish uchun sabab bo‘lmaydi.

12.3. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoxud Bank ustavida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank ustavi qoidalari qo‘llaniladi.

12.4. Mazkur Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o‘zgartirish va qo’shimchalar Kuzatuv Kengashining umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va ular bekor qilinmaguncha amal qiladi.

12.5. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan boshlab “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv Kengashi yigelishining 2022 yil 15 avgustdagги 35– sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom” o‘z kuchini yo‘qotadi.